



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

SELF-PROGRAMMING – INSONNING INFORMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA O'Z-O'ZINI DASTURLASHNING AHAMIYATI

Yigitaliyev Abrorjon¹

Farg'ona viloyati Quvasoy shahar 1-maktab

KEYWORDS

self-programming, informatika, algoritmik tafakkur, ongni boshqarish, motivatsiya, NLP, axborot madaniyati.

ABSTRACT

Mazkur maqolada informatikadagi shaxsiy rivojlanishning zamonaviy metodlaridan biri — self-programming, ya'ni o'z-o'zini dasturlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Insonning tafakkurini ongli ravishda boshqarish, intellektual salohiyatni oshirish va axborot texnologiyalari sohasidagi muvaffaqiyatlari faoliyatga tayyorlashda self-programming yondashuvining o'rni yoritiladi. Maqolada informatika fanida aqliy mehnat, algoritmik tafakkur, ijodiy yondashuv va motivatsiyaning dasturlash bilan bog'liq jihatlari muhokama qilinadi. Zamonaviy neurolingvistik dasturlash (NLP), afirmatsiyalar, va vizualizatsiya usullarining dasturchilar hayotidagi o'rni sharq falsafasi bilan uyg'unlashtirib ko'rib chiqiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15380938](https://doi.org/10.5281/zenodo.15380938)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda inson tafakkurining tezligi, algoritmik fikrlash va psixologik barqarorligi katta ahamiyat kasb etmoqda. Informatika sohasida muvaffaqiyatga erishish nafaqat texnik bilimlarga, balki insonning o'z tafakkurini, emotsiyalarini va ishga bo'lgan munosabatini boshqarish qobiliyatiga ham bog'liq. Shu nuqtai nazardan, self-programming — o'z-o'zini dasturlash — kontseptsiyasi informatika sohasi uchun dolzarb metod sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yondashuv IT mutaxassislarining kasbiy shakllanishida va samarali ishlashida muhim vosita sifatida e'tirof etiladi.

Self-programming metodlari yordamida inson o'z e'tiqodlarini va motivatsiyasini ijobiy yo'naltirishi mumkin. Bu, o'z navbatida, IT mutaxassislariga yuqori darajadagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishda zarur bo'lgan psixologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. O'z-o'zini dasturlash jarayonida vizualizatsiya, afirmatsiya va boshqa

¹ Farg'ona viloyati Quvasoy shahar 1-maktab Informatika fani o'qituvchisi

psixologik texnikalar orqali insonning ichki salohiyatini oshirish, yuqori samarali ishlashini va ijodiy yechimlarni topishini ta'minlash mumkin.

Shu sababli, self programming yondashuvi informatika ta'limi va IT mutaxassislarining kasbiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega, chunki bu metodlar shaxsiy rivojlanish, motivatsiya va psixologik barqarorlikni ta'minlaydi, bu esa muvaffaqiyatga erishishda muhim omil bo'ladi.

Metodologiya

Tadqiqot davomida quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

1. Psixologik-analitik metod: IT mutaxassislarining ish faoliyatida uchraydigan ruhiy bosim, motivatsiya va mantiqiy tafakkur o'zaro aloqasi tahlil qilindi.
2. Taqqosloviy metod: self-programming yondashuvi psixologiyada va informatikadagi dasturlash jarayonlari bilan solishtirib ko'rildi.
3. Empirik tahlil: dasturchilar va talabalar orasida o'tkazilgan kuzatuvlar asosida self-programming metodlarining amaliy samaradorligi baholandi.
4. Semantik tahlil: "mental dastur", "ichki kod", "ongli algoritm" kabi tushunchalarning informatika va shaxsiy rivojlanishdagi o'rni ochib berildi.

Natijalar

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki:

Self-programming insonning ichki dasturini tahlil qilish va noto'g'ri "kodlarni" aniqlash orqali salbiy fikrlar va ichki cheklovlarini yangilash jarayonidir. Informatikadagi dasturlash tilida kod yozish kabi self programmingda ham ongli fikrlar va afirmatsiyalar orqali o'z hayotingiz uchun "mental kod" yaratiladi. Vizualizatsiya, afirmatsiya, meditatsiya kabi usullar orqali axborotni ong ostiga singdirish jarayoni informatikadagi dastur funksiyasining ishga tushishiga o'xshaydi. Bu metodlar talabalar va IT xodimlarida ijodiy fikrlashni, charchoqqa bardoshlikni va vaqt ni samarali boshqarish qobiliyatini oshiradi.

Self-programming va informatika o'rtaсидаги о'xshashliklar

Self-programming aspektlari	Informatikadagi o'xshashliklar	Izoh
Ichki dasturiy ta'minotni tahlil qilish	Kodning xatoliklarini aniqlash va tuzatish	Dasturdagi xatoliklarni aniqlash va ularni tuzatish jarayoni.
Mental kod yaratish	Dasturlashda kod yozish	Ongli fikrlar va afirmatsiyalar orqali maqsadlarga erishish uchun "mental kod" yaratish.
Ongli fikrlar va affirmatsiyalar	Dastur funksiyasining ishga tushishi	Tasavvur va afirmatsiyalar orqali ong ostiga ijobiy axborotning singdirilishi.

Ijodiy fikrlash va vaqtini boshqarish	Algoritmlar va kodning samarali ishlatalishi	Samarali ishslash uchun stressni boshqarish va vaqt-vaqt bilan qaror qabul qilishda yordam beradi.
---------------------------------------	--	--

Self-programming metodlari talabalar va IT xodimlarida nafaqat ijobjiy fikrlashni va stressga chidamlilikni oshiradi, balki ular samarali vaqtini boshqarish, ijodiy fikrlash va tez qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu metodlar o'z-o'zini rivojlantirishga va shaxsiy muvaffaqiyatga olib keladigan muhim omil hisoblanadi.

Munozara

Informatika — bu faqat kompyuterlar tili emas, balki inson tafakkurining mantiqiy strukturalarini ifodalovchi vositadir. Har qanday dastur oldindan rejalashtirilgan algoritm asosida ishlaydi. Xuddi shunday, self-programming insonni o'z tafakkur algoritmini yaratishga o'rgatadi. O'z-o'zini dasturlash orqali shaxsiy ishonch, tashabbus, muammolarni yechish qobiliyati, ijobjiy fikrlash — dasturlovchi uchun zaruriy xususiyatlarga aylanishi mumkin.

Zamonaviy dasturchilarning ko'pchiligi NLP, afirmatsiya, GTD (Getting Things Done) kabi texnikalardan foydalanadi. Self-programming yondashuvi orqali IT kasb egasi nafaqat texnik, balki mental va ruhiy jihatdan ham o'z ustida ishslashga qodir bo'ladi. Bu metod, ayniqsa, startapchilar, frilanserlar, dasturchi talabalar uchun dolzarb hisoblanadi. Sharqona tafakkurda bu jarayon "nafsni tarbiya qilish", "xotirjamlik" deb nomlansa, g'arbda bu "mental reprogramming", "self-hacking" deb yuritiladi. Har ikkisi ham ongni ijobjiy dasturlashga asoslanadi.

Xulosa

O'z-o'zini dasturlash — informatika sohasida intellektual salohiyatni ochish, shaxsiy barqarorlikni mustahkamlash va samarali fikrlash tizimini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim vositadir. Dasturlovchi shaxs sifatida fikrlarimizni "kodlash", salbiy "xatoliklarni" aniqlash va yangi "versiyalar" yaratish orqali o'zimizni takomillashtira olamiz. Shu bois self-programming metodlarini IT sohasi vakillari, dasturchilar va talabalar orasida keng joriy etish zarur. Ushbu yondashuv informatika fanining inson omili bilan bog'liq jihatlarini yoritadi. Shuningdek, uni ta'lim jarayoniga kiritish, yoshlarning axborot madaniyatini va tafakkur intizomini oshiradi. Self-programming informatikani nafaqat texnik, balki shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida ham yangicha yondashuvda ochib beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Rustamov Sh.S. Sun'iy intellekt asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 284 b.
2. Shodmonqulov B. Algoritmik tafakkur va dasturlash asoslari. – Toshkent: Fan, 2021. – 276 b.
3. Karimov A., Ziyodov S. Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlar. – Toshkent: TATU, 2023. – 250 b.
4. Norboyev A.X. Axborot texnologiyalariga kirish. – Toshkent: "Yangi asr avlod", 2020. –

200 b.

5. Ayupov A.A., Qodirov A.H. Informatika va axborot madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019. – 220 b.
6. Zadeh L.A. Tumanli mantiq va intellektual tizimlar nazariyasi. – Tarjima. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2018. – 190 b
7. Ray Kurzweil. Sun’iy intellektning kelajagi. – Tarjima. – Toshkent: Kompyuter Savodxonligi markazi, 2022. – 300 b.